


Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 % ga o'sdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 28,8 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,4 % ga o'sdi.




2020-yil yanvar oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)

2020-yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining hududlarida chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'ati kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'ati Sergeli (112,3 %), Yakkasaroy (110,3 %), Mirobod (109,1 %), Olmazor (106,9 %) va Chilonzor tumanlarida (105,9 %) qayd etildi. Ayrim tumanlarda jumladan, Bektemir tumanida 100,4 % nisbatan past ko'rsatkich sezilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 171,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 104,9 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar oyida ovqatlanish tashkilotlarining jamiga nisbatan ulushi



Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulushni Chilonzor (15,9 %), Sergeli (15,6 %), Shayxontohur (14,4 %), Yunusobod (13,2 %) tumanlari tashkil etgan bo'lsa, Yashnobod (4,3 %), Uchtepa (6,0 %) va Bektemir tumanlarida (3,5 %) eng past ko'rsatkich qayd etildi.




TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar oyi

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 28,8 % ni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Chilonzor (32,4 %), Yakkasaroy (13,4 %), Shayxontohur (11,7 %) va Sergeli (10,2 %). Ushbu tumanlar chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (jamiga nisbatan, foizda)



● 2020-yil yanvar oyi



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


2020-yil yanvar oyi

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1 126,9 ming so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir (8818,1 ming so'm), Chilonzor (2253,8 ming so'm), Yakkasaroy (1596,1 ming so'm), Mirobod (1541,8 ming so'm) Uchtepa (126,9 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


	Ming so'm	O'sish sur'ati
Toshkent sh	1 126,9	104,5
Uchtepa	1 149,1	100,2
Bektemir	8 818,1	100,0
Yunusobod	863,6	101,2
Mirzo Ulug'bek	527,6	107,1
Mirobod	1 541,8	108,8
Shayxontohur	1 210,3	105,8
Olmazor	323,7	106,9
Sergeli	932,6	108,7
Yakkasaroy	1 596,1	110,8
Yashnobod	657,4	100,2
Chilonzor	2 253,8	106,0

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan, foizda)



2020-yil yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahri bo'yicha aholi jon boshiga 1126,9 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,5 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar oyida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sish Yakkasaroy (110,8 %), Sergeli (108,7 %), Mirzo Ulug'bek (107,1 %) va Mirobod (108,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Bektemir (100,0 %) hamda Yashnobod (100,2 %) tumanlarida qayd etilgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi (jami chakana savdo aylanmasidan)



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi eng katta bo'lgan tumanlar: Olmazor (79,5 %), Chilonzor (34,7 %), Mirzo Ulug'bek (54,2 %) va Sergeli (71,9 %) tumanlari. Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkich Uchtepa (19,2 %) va Bektemir tumanlari (10,8 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

2020-yilning yanvar oyida ulgurji savdo


2020-yilning yanvar oyida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 3394,3 mlrd. so'mni yoki 2019-yilning shu davriga nisbatan 111,3 % ni tashkil qildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar 2831,5 mlrd. so'mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 83,4 % ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning savdodagi ulushi (jami savdoga nisbatan, %)




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p ulushi Bektemir (98,7 %), Shayxontohur (97,9 %), Uchtepa (94,5 %) va Chilonzor tumanlari hissasiga, (90,9 %) eng past ulush esa Yakkasaroy (46,0 %), Olmazor (62,6 %) va Sergeli tumanlariga (83,6 %) to'g'ri kelgan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Mirzo Ulug'bek - 12,8 %, Olmazor - 11,3 %, Sergeli - 10,8 %, Mirobod - 11,0 %. Ba'zi tumanlar ya'ni Yashnobod (5,0 %), Uchtepa (5,6 %), Bektemir tumanlarida (2,2 %) jamiga nisbatan eng past ko'rsatkich qayd etildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori bo'lgan tumanlar: Chilonzor - 21,5 %, Mirobod va Shayxontohur - 11,8 %, Yunusobod- 10,5 % hamda Olmazor - 8,5 %. Eng past ko'rsatkich Bektemir tumanida (2,6 %) qayd etilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasining (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda (2020-yilning yanvar oyi holatiga)

Umumiy tovar aylanmasining 924,0 mlrd. so'mni yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil qilgan bo'lsa, 2018-yilning shu davriga nisbatan 0,7 % ga ko'paygan. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 32,3 % ga teng bo'ldi.






TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


2020-yil yanvar oyi

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Olmazor va Yakkasaroy tumani - 25,4 %, Sergeli - 10,7 %, Chilonzor - 10,8 %. Ba'zi tumanlar ya'ni Shayxontohur tumanida 1,3 %, Uchtepa tumanida 1,9 %, Bektemir tumanida 0,2 % ko'rsatkichlar qayd etildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)



Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar: Chilonzor - 32,4 %, Yakkasaroy - 13,4 %, Shayxontohur - 11,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bektemir tumani - 1,4 %, Uchtepa tumani - 2,4 %, Yunusobod tumani - 4,8 % bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Toshkent shahar statistika boshqarmasi Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi



Ma'lumot uchun telefon:

71-230 88 20

71-230 88 21